

## SOG'IN SIGIRLARGA RATSION TUZISH TARTIBI VA OZUQA ME'YORINI ANIQLASH

*Xudoyberganova G.S.*

*E-mail: xudoybergenova.guzal@mail.ru*

*Qibray tuman kasb-hunar maktabi*

*Ishlab chiqarish ta'limi ustasi*

*Sulaymonov A.A*

**Annotatsiya:** Xalqimizning qishloq xo'jaligida chorvachilika bo'lgan talabini qondirish chorvachilikni rivojlantirish hamda chorva hayvonlarini to'la qiymatli oziqlantirishda yuqori kalloriyali yem-xashak ozuqa zaxirasini yaratish juda muhim. Ozuqalarning to'yimligini baholash uchun ularning mukammall ratsion tizimini tuzish va ozuqa tarkibini o'rganish sut, go'sht mahsulotlari uchun boqiladigan xayvonlar ratsionini yuqori kalloriyali ozuqa bilan taminlash zarur.

**Kalit so'zlar:** ozuqa, chorvachilik, hazm qilish, ratsion tuzish, me'yorini aniqlash. oqsil uglevodlar, yog', mineral, to'yimli moddalar, vitaminlar, mahalliy.

Qishloq xo'jalik hayvonlarini oziqlantirish uchun tuziladigan ratsion hayvonlarning to'yimli moddalarga (energiya oqsil uglevodlar, yog', mineral moddalar va vitaminlar) ga bo'lgan talabini to'liq qanoatlantirish lozim. Ratsion tabiiy va madaniy holda etishtiriladigan ozuqalardan tuzilib, ushbu ozuqalar hayvonlarning ishtahasiga mos kelishi, ular tomonidan sevib iste'mol qilinishi kerak. Bundan tashqari ushbu ozuqalar hayvonlarning fiziologik haloti, sog'ligi va olinadigan mahsuloti hamda uning sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmasligi lozim.

Tuziladigan ratsion tarkibida hayvonlarga beriladigan ozuqalar miqdorini shunday tanlash kerakki, ushbu ozuqalar miqdori hayvonlar tomonidan iste'mol qilinganda oson hazmlanishiga zamin yaratishi lozim. Ozuqalarning hajmi va ular tarkibidagi quruq moddalar hayvonlarning ovqat hazm qilish organlari hajmiga mos bo'lishi, engil hazmlanishi va ichak orqali qon va limfaga engil so'rilishi talab qilinadi. Ovqat hazm qilish organlarining hajmiga ozuqalarning yetarli miqdorda berilmasligi yoki ozuqalar miqdorining me'yor talabidan ko'p berilishi ovqat hazm qilish organlarining funksiyasining buzilishiga hamda hayvonlarning umumiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [1-2]. Xo'jaliklarda hayvonlarga ratsion tuzishda hayvonlarning turi, yoshi, jinsi, mahsulot yo'nalishi, fiziologik holatini inobatga olgan holda o'rtacha ko'rsatkichlar inobatga olinib har bir guruh uchun alohida ratsion tuzish tavsiya etiladi [3-4]. Yuqori mahsulдорlikga ega bo'lgan hayvonlar naslli erkak hayvonlar kasal va kasallikdan tuzalgan hayvonlar ilmiy ishlarni o'tkazishda tajriba o'tkazilayotgan hayvonlar uchun xo'jalikda alohida ratsion tuziladi. Ratsion tuzishda ozuqalar

tarkibidagi to‘yimli moddalardan unumli foydalanish, hayvonlarning to‘yimli moddalarga bo‘lgan tabiiy talabi hamda oziqlantirish rejimini ham e‘tiborga olish zarur. Ratsion tuzishda quyidagi prinsiplarga amal qilinadi. Hayvonlarni alohida yoki guruh-guruh holda oziqlantirish usuli. Ozuqalarning to‘yimliligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va boshqalar. Qanday bo‘lmasin barcha hollarda ratsion tuzishda quyidagilarga alohida e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi. 1. Hayvonlarni barcha turdagi to‘yimli moddalarga bo‘lgan talabini to‘liq qondirish uchun yetarli miqdorda va o‘zaro to‘g‘ri nisbatda ozuqalar bilan ta‘minlashi;

2. Ozuqalar tarkibidagi to‘yimli moddalar hayvonlar sog‘ligi, fiziologik holati va olinadigan mahsulot sifatiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatmasligi;

3. Yaxshi ishtaha bilan iste‘mol qilinishi, engil hazmlanishi va moddalar almashinuviga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi;

4. Xo‘jalik uchun arzon va iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lishi. Ozuqa ratsioni asosan xo‘jalikda etishtiriladigan har xil ozuqalardan tuziladi. Ozuqa ratsioni tarkibida yetishmayotgan har xil mineral ozuqalar qo‘shimcha ravishda sanoatda ishlab chiqariladigan har xil ozuqaviy qo‘shimchalar bilan to‘ldiriladi. To‘yimli moddalarga boy bo‘lgan har xil ozuqalardan ilmiy asoslangan tarkib bo‘yicha tuzilgan ozuqa ratsioni hayvonlarning ovqat hazm qilish jarayonida ichki sekretsiya bezlari faoliyatini jadallashtirib ratsionning to‘la qiymatliligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ratsion tarkibi Ratsion tarkibi deb, ratsiondagi ma‘lum bir turdagi ozuqalar to‘yimliligining (ozuqa birligining) ratsiondagi jami ozuqalar to‘yimligiga (jami ozuqa birligiga) nisbatining foizli ifodasiga aytiladi. Ratsion tarkibi hayvonning turi, yoshi, jinsi, fiziologik holati, mahsuldorlik darajasi va xo‘jalikda mavjud jamg‘arilgan ozuqalar miqdoriga ham bog‘liq bo‘ladi. Hayvonlarni oziqlantirish turi xo‘jalikda jamg‘ariladigan ozuqalar miqdoriga va to‘yimliligiga qarab mavsumlar bo‘yicha taqsimlanadi. Oziqlantirish turi ratsion tarkibidagi ma‘lum turdagi ozuqalar to‘yimliligining miqdori bilan belgilanadi. Masalan, qoramollar ozuqa ratsioni tarkibidagi ozuqalar to‘yimliligining (ozuqa birligining) 50 % silos va senaj tashkil etsa, silos-senajli oziqlantirish turidagi ratsion yoki shirali oziqlantirish turidagi ratsion deb ataladi. Agar sigirlar ratsioni tarkibida konsentrat (yem) ozuqalarning ozuqa birligi 10 % tashkil qilsa bunday ratsion hajmli oziqlantirish tipidagi ratsion deyiladi. Agar ozuqa ratsioni tarkibida pichan va somonning miqdori ko‘p bo‘lsa bunday ratsion quruq oziqlantirish turidagi ratsion deyiladi. Fan tilida ratsion oziqlantirish turining aniq ifodasidir. Agar tuziladigan ratsionlar tarkibida ozuqalarning o‘zaro to‘g‘ri nisbatda birlashuvi va solishtirma og‘irligi bo‘yicha ilmiy asoslangan va qo‘llaniladigan sahoning shart sharoitlari inobatga olinib tuzilsa bunday ratsionlar to‘la qiymatli ratsionlar deb ataladi [5-6]. Har qanday to‘la qiymatli ratsion o‘zining to‘yimliligi bo‘yicha hayvonlarning ehtiyojiga qarab to‘yimli moddalar bilan to‘liq ta‘minlanganligi bilan baholanadi. Shuning uchun hayvonlarni oziqlantirishda to‘la

qiymatli ratsionlarning o'zni beqiyos sanaladi. To'la qiymatli ratsion ilmiy muassasalar tomonidan ishlab chiqariladi va sinovdan o'tkazilib ishlab chiqarishga tavsiya etiladi. Mutaxassislar mahalliy va xo'jalikdagi shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, ularga qisman o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi mumkin. Hozirgi paytda yirik shoxli mollarni oziqlantirishda tabiat iqlim sharoiti va ekologiyaning o'zgarishini inobatga olib, tuziladigan ratsion me'yorini (normasini) 24 ta ko'rsatkich bilan nazorat qilish tavsiya qilinmoqda. Energetik ozuqa birligi (EOB) almashinuv energiyasi (megajoul) da quruq modda, xom protein, hazm bo'ladigan protein, xom kletchatka, qand, xom yog', osh tuzi, kalsiy, fosfor, magniy, kaliy, oltingugurt, temir, kraxmal, mis, rux, kobalt, marganets, yod, karotin, vitamin D (kalsiyferol), vitamin E (tokoferol) ushbu ko'rsatkichlar bilan nazorat qilinib tuzilgan ratsion yirik shoxli mollarni to'la qiymatli oziqlantirish, yuqori mahsuldorlik ko'rsatkichlarini to'la namoyon etish hamda ozuqalardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Ratsion tuzish metodikasi (uslub)

Hayvonlarga ratsion tuzishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Hayvonlarning to'yimli moddalarga bo'lgan talabini aniqlash (me'yor norma);
2. Tuziladigan ratsion tarkibini aniqlash;
3. Ratsion tarkibi bo'yicha ratsionda beriladigan ozuqalarni (ozuqalar soni va miqdorini) hisoblash;
4. Ozuqalar tarkibidagi to'yimli moddalar miqdorini aniqlash;
5. Ratsion tarkibiga kiritiladigan ozuqalar tarkibidagi moddalar miqdorini hisoblash;
6. Ratsion tarkibiga kiritilgan ozuqalar tarkibidagi to'yimli moddalar miqdorini har bir ozuqadagi to'yimli moddalar miqdorini alohida-alohida jamlash (qo'shib chiqish);
7. Jamlangan to'yimli moddalar miqdorini me'yorda talab etiladigan to'yimli moddalar miqdori bilan solishtirish va farqini aniqlash;
8. Ratsionda jamlangan to'yimli moddalar energetik ozuqa birligi hazm bo'ladigan protein, qand va boshqa to'yimli moddalarni me'yorda (normada) talab etilgan miqdorga yaqin bo'lishini ta'minlash;
9. Me'yor talablari bo'yicha ratsionda etishmayotgan mineral moddalar va vitaminlarni hisoblash hamda ratsion tarkibiga kiritish;
10. Har bir ko'rsatkich bo'yicha tuzilgan ratsionni analiz qilish;

Biz tirik vazni 500 kg bo'lgan bir kunlik sut miqdori 15 kg va sutning yog'liligi 3,8-4 % bo'lgan sog'in sigirga ozuqa ratsioni tuzamiz. Xo'jalikda quyidagi ozuqalar mavjud beda pichani, suli pichani, bug'doy somoni, bug'doy doni, makka va suli silosi, har xil o'tlardan tayyorlangan senaj, xashaki lavlagi, suli arpa, nuxat hamda har xil mineral va vitaminli qo'shimchalar.



Хулоса қилиб қишлоқ хо'jaligida chorva mollari uchun eng asosiy sut va go'sht maxsulotlarini o'shirsh uchun yuqorida sanab o'tilgan ratsion kalloriyali ozuqalar o'rtacha kunlik o'sishini imkoni bo'ladi. Eng asosiysi axolini sifatli sut va go'sht bilan taminlanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Sattorov N.E., Botirov A.N., Ashurov N.A. "Chorvachilik asoslari" Toshkent-2020yil. 185bet
2. Ikromov T.H. "Chorvachilik asoslari" Toshkent-2001yil. 288 bet.
3. Maqsudov I., Jo'rayev J. Y., Amirov .Sh.Q. "Chorvachilik asoslari" Toshkent-2012yil. 361- bet.
4. Sulaymonova X.I., Xudoyberganova G.S. Qishloq xo'jaligida yosh hayvonlarni o'sishi va uni hisoblash. Образование наука и инновационные идеи в мире, 15(4), 95–98 bet. Retrieved from(2023).
5. Sulaymonova X.I., Xudoyberganova G.S. Qishloq xo'jaligik hayvonlarni oziqlantrish va kimyoviy tarkibi. Образование наука и инновационные идеи в мире, 15(4), 102–105 bet. (2023).
6. Xudoyberganova G.S. Ozuqaning hazm bo'lish koeffisientini aniqlash. Образование наука и инновационные идеи в мире,15(4), 99–101 bet. (2023).